

SEMANTIC TRANSFORMATION OF THE TERM *IMAGE* IN MODERN LITERATURE

Dilfuza Abduvakhobovna KHATAMOVA

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan

ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA *OBRAZ* TERMINNING SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI

Dilfuza Abduvaxobovna XATAMOVA

Dotsent, filologiya fanlari nomzodi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ТЕРМИНА *ОБРАЗ* В СОВРЕМЕННОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Дилфуза Абдувахобовна ХАТАМОВА

Доцент, кандидат филологических наук
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан xatamovadilfuza73@gmail.ru

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xatamov D.A. Zamonaviy adabiyotshunoslikda obraz terminning semantik transformatsiyasi.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 5. — B. 195-208.

<https://doi.org/10.36078/1733122134>

Received: August 02, 2024

Accepted: October 17, 2024

Published: October 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article examines the problems of replenishing the modern literary terminological system with new concepts and issues of transforming the boundaries of the sphere of perception of the term and its semantics in Russian terminology. As a result of the expansion of the boundaries of the sphere of perception of the term image in modern literary criticism, a new type of image appears — an image-symbol, which requires the formulation of questions of identification, interpretation, transformation, and equivalence of the concept. The article identifies the factors of the origin and replenishment of the typology of the modern image, the definition of its semantic field, and the boundaries of the sphere of perception through a review and generalization of modern theoretical concepts, problems of identification of definitions of terms, as well as the problem of their interpretation within the framework of the latest methodologies. The purpose of the study is to disclose the issues of selecting equivalents in the Uzbek language to borrowed terms entered through the Russian language and to consider their competent usage.

Keywords: term; terminological system; literary terminology; image; image-symbol; motive; image-motive.

Annotatsiya. Maqola qamrovida zamonaviy adabiyotshunoslikning terminlar tizimini yangidan yangi tushunchalar bilan to'ldirilishi, terminologiya doirasidagi tushunchalarni ma'no qamrovi chegaralarining transformatsiya va adabiy ilmga oid har bir terminning semantik jihatdan o'zgarishi haqida so'z yuritildi. Jumladan, obraz terminning ma'no qamrovi chegaralarini kengayishi natijasida zamonaviy adabiyotshunoslikda obraz-ramz kabi turini

vujudga kelishi borasida fikr yuritilib, uning interpretatsiya, identifikatsiya, transformatsiya va muqobillik muammolari o'rganiladi. Obraz terminning tipologiyasi borasida, o'ziga xos xususiyatlari, ularning adabiyotshunoslik tushunchasi sifatida semantik maydoni va ma'no qamrovi chegaralarining belgilanishi masalalari tadqiq qilinib, zamonaviy nazariy konsepsiyalar ichra termin izohining o'zgarish sabablari, defnitsiyalarni tenglashtirish muammolari, metodologiyalar zaminida talqin qilish omillari aniqlandi. Ekvivalentlik omili rus tili orqali kirib kelgan va kelayotgan terminlarni o'zbek tilida muqobilini topish, maqola va ilmiy ishlar doirasida ishlatilayotgan terminlarni qo'llanilish masalalariga aniqlik kiritish va maqolani hajm imkoniyatlaridan kelib chiqib, tahlil qilish maqsad sifatida belgilandi.

Kalit so'zlar: termin; terminlar tizimi; adabiyotshunoslik terminologiyasi; obraz; ramz; obraz-ramz; motiv; obraz-motiv.

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы пополнения современной литературной терминологической системы новыми понятиями и вопросы трансформации границ сферы восприятия термина и его семантики в русской терминологии. В результате расширения границ сферы восприятия термина «образ» в современном литературоведении появляется новый тип образа — образ-символ, который требует постановки вопросов идентификации, интерпретации, трансформации и эквивалентности понятия. В статье выявляются факторы возникновения и пополнения типологии современного имиджа, определения его семантического поля и границ сферы восприятия посредством обзора и обобщения современных теоретических концепций, проблемы идентификации определений терминов, а также проблемы их интерпретации в рамках — основа новейших методологий. Цель исследования — раскрыть вопросы подбора эквивалентов в узбекском языке заимствованным терминам, вошедшим в русский язык, и рассмотреть вопрос об их грамотном употреблении.

Ключевые слова: термин; терминосистема; мотив; образ; литературоведческая терминология; образ-символ; образ-мотив.

Kirish

Zamonaviy adabiyotshunoslikda o'z o'rnini qat'iy belgilagan faol terminlar ham ma'no qamrovi chegaralarini o'zgartirib, sinonimiya va polisemiya holatlari yuzaga kelmoqda. Soha mutaxassislari ushbu turdagi muammoni adabiyotshunoslik ilmi obyektini o'rganish doirasining kengayishi va uning natijasida kirib kelayotgan turli yo'nalishlar, bo'limlar va metodologiyalar ta'limotida yangi yoki faol ishlatilayotgan terminlarga qo'yilayotgan talablarning o'zgarishi natijasida kengroq yoki torroq ma'noda ishlatilishi, ularga parallel ravishda "sinonimlar" qo'llash holati bilan bog'laydi. Obraz terminining ma'no qamrovi transformatsiyasini ilmiy-nazariy konsepsiyalar negizida ko'rib chiqar ekanmiz, antik davrlarda ushbu tushuncha *ko'rinish* kabi mazmunda ishlatilib, keyinchalik *aks ettirish*, so'ngra mimessis nazariyasidan kelib chiqqan holda ijodkor tomonidan yaratilgan "ikkinchi tabiat" kabi anglashilishining guvohi bo'lib, bu maqola doirasida *obraz* terminning tipologiyasi borasida fikr yuritib, uning yangi turlari va ularning adabiyotshunoslik tushunchasi sifatida semantik maydoni, uning ma'no qamrovi chegaralari va ekvivalentlik masalalari tadqiq qilinadi.

Asosiy qism

Hamma hodisalarga munosabat kuzatilganidek, obraz talqinida ham turli davrlarda (antik, oʻrta asrlar, Uygʻonish davri va keyingi davrlardagi adabiy oqimlar: klassisizm, sentimentalizm, romantizm, realizm, naturalizm, simvolizm, modernizm va postmodernizm) turlicha qarashlar mavjud. Demak, zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy obraz haqidagi taʼriflar muayyan maʼnoda Aristotel davridan tortib XIX asrgacha davom etgan talqinlarni nazariy jihatdan umumlashtirib, bu termin orqali hayot hodisalarini konkret-individual shaklda badiiy asarda qayta yaratish tushuniladi.

XX asrda *obraz* borliqni oʻzlashtirish va qayta yaratish usuli, uning maqsadi va mohiyati borliqqa taqlid qilish emas, balki uni konkret shakllarda qayta yaratishdan iborat, deya talqin qilinadi. Hayot haqiqatini individual shaklda aks ettirish, umumiylikni yaxlit, konkret ifoda etish, borliqqa taqlid qilmay, uni qayta yaratishdan iborat. Adabiyotda obraz yaratishning asosiy vositasi soʻz ekanligi; obrazning predmetlilik, maʼno umumlashganligi, tarkibiy xarakterga egaligi kabi qator xususiyatlar orqali tavsiflanadiki, oʻzbek adabiyotshunosligida istiqloq davrida yaratilgan darslik va qoʻllanmalarda ana shu jihatlarni aks ettirishga intilish bor. Jumladan, obrazga berilgan taʼriflar turlicha boʻlishiga qaramay, ular orasida nisbatan masalaning mohiyatiga yaqin kelgan taʼrif D. Quronovga tegishli. Olim tomonidan tayyorlangan “Adabiyotshunoslikka kirish” qoʻllanmasida “badiiy obraz — borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz oʻsha borliqning oddiygina aksi emas, yoʻq, u borliqning sanʼatkor koʻzi bilan koʻrilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir”(16, 44), deb tushuntiriladi. Bu taʼrif badiiy obrazning mohiyatini imkon qadar kengroq tushunishga yordam beradi. Bugungi kunda aynan mana shu mohiyatni yanada kengroq, adabiyotshunoslikdagi yangi jarayonlarni inobatga olgan holda, ifodalaydigan terminlardan biri *obraz-ramzdir*. Maʼlumki, adabiy obraz hayot kechinmalarini aks etish bilan birgalikda, yangidan yangi maʼno, mohiyat vujudga keltiruvchi estetik kategoriyadir. U hayotiy faktlarga asoslanib, undagi umumlashmalar olamni anglashda, kitobxonga real dunyo miqyosida oʻz “men”ini, oʻrnini, voqelikka munosabatini anglashga imkon beradi. Bugungi kunda *obrazning* maʼno qamrovi chegaralari kengayishi haqida soʻz yuritar ekanmiz, yuqorida koʻrsatilgan *obraz-ramzdagi* umumlashmalar koʻp qatlamligi bilan ajralib turishini koʻrish mumkin. Bunday serjilo maʼnoga yoʻl ochib beradigan kategoriya — obraz va ramzning birlashishidir: “obraz-ramzlar dunyo manzarasidan maʼnaviy ozuqa olish va uni sarflash yoʻlidagi naqarotga aylanadi”(7, 3–4).

Maʼlumki, ramz adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va estetika ilmlarining bosh kategoriyalaridan biri hisoblanib, badiiy *makonda* obraz bilan birlashar ekan, ijodkorga borliqni nafaqat umumlashma yoki individual koʻrinishda, balki uni boshqa koʻpgina omillar bilan bogʻlab tasvirlashga imkon beradi. M. Yu. Lotmanga koʻra, ramz “Semiotik ilmda koʻp maʼnoli tushunchalardan biri — ramz universal estetik kategoriya sifatida namoyon boʻlib, unga mohiyat jihatidan yaqin boʻlgan badiiy obraz, belgi va allegoriya bilan bogʻlanishiga bevosita bogʻliqdir (10, 191–

199). Adabiyotshunoslikda keng ma'noda ramz "semiotik jihatidan olingan belgi va bu asar nomiga chiqarilgan tasvir barcha muvofiqligi va bitmas-tuganmas ma'nolari bilan ta'minlangan obrazdir" (1, 378–379), deb ta'riflanadi. Demak, ramz — serqatlam mohiyatini obrazning serqirra ma'nosi bilan bog'lashi natijasida o'zini namoyon qiluvchi belgi, ishoriadir. "Adabiyot ensiklopedik lug'ati"da ramzni allegoriyadan farqlari belgilanib, "ramzning ma'nosini aqlning oddiy sa'y-harakatlari bilan ochib bo'lmaydi, u obrazning strukturasi ajralmas, obrazga "singdirilishi" va keyin u orqali ifolash mumkin bo'lgan o'ziga xos rasional formula sifatida mavjud emas"(9, 378) izohi beriladi. Demak, ramz universal kategoriya sifatida bir tomondan badiiy obraz, boshqa tarafdin belgi bilan qiyoslanadi. Bugungi kunda *obraz-ramz* ramziy jihatdan serqatlam ma'noni obraz strukturasi orqali namoyon qilib, ijodkorga obrazdagi asosiy jihatni ajratib ko'rsatishga imkon beruvchi belgidir: "ramz — tasvirning barcha muvofiqligi va bitmas-tuganmas ma'nolari bilan ta'minlangan belgi"(1, 378-379). Ushbu semantik qatlamlar nafaqat inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, balki millat, xalq va insoniyatning madaniy kodi bilan bog'liq hodisalarni anglatishga imkon yaratadi. "Ramz — nafaqat semantik ko'lamning cheksiz kengayishi sifatida umumlashtirish, balki ma'no bilan bog'liq umumlashmadir. Belgining umumlashtiruvchi energiyasi uni "madaniy xotira mexanizmi" bo'lishiga imkon beradi" (11, 545) kabi Yu. Lotmanning fikri qilgan xulosamizni dalillaydi. Rus olimasi N. I. Kolodinaning "har qanday badiiy ramz badiiy obrazdir, lekin har bir badiiy obraz ramz bo'la olmasligi" (8, 40–45) haqidagi fikri ramz kategoriyasining obraz kategoriyasidan nihoyatda keng qamrovli semantik maydoni mavjudligi va bu mohiyat doirasi asosida olamni anglashning o'ziga xos omillari turishini ko'rsatadi. Shunday qilib, ramz kategoriyasi badiiy obrazga o'z ma'no qamrovini kengaytirishga, ya'ni polisemantik qamrovga ega bo'lishiga sharoit yaratadi. Obraz va ramz munosabatini S. S. Averinsev quyidagi fikrida juda aniq ifodalagan: "obraz va ramz ikki qutbga o'xshaydi, biri ikkinchisiz tasavvur qilib bo'lmaydi (chunki ma'no tasvirdan tashqarida namoyon bo'lmaydi va ma'no tashqarisidagi obraz uning tarkibiy qismlariga parchalanadi), lekin bir-biridan ajralgan, shuning uchun ular orasidagi energiya maydonida ramz ochiladi" (1, 378–379). Narsa-predmet obrazi badiiy asarda, birinchidan, o'sha predmetlar dunyosining namunasi, qahramon foydalanayotgan detal ma'nosida kelsa, ikkinchidan, ko'pincha, u badiiyatda ramziy ma'no tashiydi. Badiiy adabiyotning ramziy xarakteri ham mana shu obrazlar orqali yuzaga chiqadi. Buni adabiyotshunos D. Quronov "metaforiklik" tushunchasi orqali anglatadi: "...ya'ni "metaforiklik" deganda, badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash yo'sini tushuniladi. Chinakam san'atkor nigohi mohiyatga qaratilgan bo'lib, u voqelikdagi narsa-hodisalarning barchamizga ko'rinib turgan tashqi o'xshashligi emas, bizning nigohimizdan yashirin ichki o'xshashligiga tayangan holda fikrlaydi" (16, 49). Demak, narsa-predmet obrazi tushunchasini anglash uchun yana boshqa terminlar "simvolik (ramziy)" hamda "metaforiklik" kabilarni ham bilish zarurati tug'iladiki, adabiyotshunoslikdagi bir termin mohiyatini anglash uchun uni anglatuvchi boshqa terminlar bilan munosabatini bilish va yaxlit terminlar

tizimida integratsiya darajasini anglash zarurligini ushbu misoldan tushunish mumkin.

Masalaning boshqa tomoni, obraz-ramz terminining ma'no qamrovi madaniy kod bilan munosabatda ekan, demak, u *arxetip* bilan bog'liq. Bu borada Yu. M. Lotmanning “в символе всегда есть что-то архаическое” (1, 378–379) degan fikriga tayanamiz. Nazarimizda, *madaniyat* tushunchasining ma'no qamrovi K. Levi-Strosning “обобщенное создание разума, а именно совокупность символов, которые принимаются членами общества” (5, 161) fikrida aniq belgilanadi. Madaniyatning asosi mifda, “mif yaratish insonning “analogiyalar”ni yaratish uchun o'ziga xos qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni psixikaning universal jarayonlari “tabiiy material”ni qandaydir “arxetipik sxemalarga aylantiradi”. Yuqoridagi qarashlarni umumlishtirsak, o'zaro bog'langan madaniyat-ramz-mif-arxetip-inson kabi yaxlit tushunchalar zanjiriga duch kelamiz. Ushbu zanjirning har bir qismi o'z mavqeyiga va semantik doirasiga ega bo'lib, banddagi keyingi bo'lakning mantiqiy davomi asosnomasidir. Bu tizim ramzlar orqali ijodkor tomonidan dunyoni qayta anglab, badiiy asarda namoyon qilinishi, uni madaniy hodisa sifatida tushunib, arxetipik tabiatga ega badiiy ijod mahsuli sifatida o'rganishdir.

Zamonaviy adabiyotshunoslik arxetip tushunchasi bilan ish ko'rayotganini eslash o'rinli. “Arxetip — (yunoncha: arxetypos — prototip, model) tahrirlash texnikasida matnning eng qadimgi saqlanib qolgan versiyasi... Arxetip umumbashariy, vaqt ta'siridan xoli mazmunga ega bo'lib, yangi davr bosqichlarida o'zini namoyon qilish qudratiga ega” (15, 567). Bu tushuncha “proobraz” (obraz orqali) sifatida anglatilmoqda, tarixiylik ta'sir ko'rsata olmaydigan bir motiv kabi anglanmoqda. Ushbu terminga munosabatda nisbatan boshqacharoq talqinlar ham mavjudligini kuzatamiz: “Arxetip — badiiy asar haqidagi muallif yaratgan tasavvur, universal timsol” (15, 567). Bu tushuncha shveysariyalik olim K. G. Yung tomonidan kiritilgan termin bo'lib, “shaxs sinoatini ochish”ga qaratilgan. Kishi individual psixikasidagi instinktiv shakllardan biri bo'lib, ongga obraz, tasvir va fantaziya bo'lib kirib keladi”. K. G. Yungning yozishicha, tafakkurdan voz kechib, “arxetip” orqali tushuntirish mumkin bo'lgan hodisadir. Olim bir qancha arxetiplarni aniqlab, ularga konkret nomlar bergan: anima (erkak kishi ongidagi ayollar haqidagi boshlang'ich tasavvur) va animus (ayollar psixikasidagi erkakning tasviri). Arxetip psixikaning ongsiz qismi, ya'ni soyasi bo'lib, shaxsning qorong'u va sirli qirralarining ramzidir. “Inson psixikadan o'rin olgan arxetiplar ruhiy faoliyatning turli ko'rinishlarida namoyon bo'ladi, lekin ko'pincha u mif va urf-odatlar (marosimlar)da aks etadi. Adabiyot va san'atning barcha turlarida arxaik motivlar shunga olib keladiki, arxetip bu hollarning barchasida tadqiqot quroli sifatida xizmat qilishi mumkin” (15, 570). Arxetipga bunday yondashuv mifologik maktab namoyandalari aka-uka Grimlar, V. Buslayev, A. Afanasyev ishlarida ko'zga tashlanadi.

Arxetip tushunchasi o'zbek adabiyotshunosligida H. Boltaboyev tomonidan “...Ijodiy tafakkurga xos qoliplar, sxematik fikrlash tarzi va ibtidoiy motivlar....arxetip muallif va kitobxon o'rtasidagi kommunikativ modelga aylangan” (2, 522) izohi berilib, bu yerda arxetip terminining ma'no qamrovi doirasidagi transformatsiya holati inobatga olinadi. D. Quronovning “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligida shunday

yondashuv bor: “arxetip deyilganda, inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo‘lgan turg‘un “sxema”lar, konstruksiyalar, qoliplar tushunilib, ularning izlarini eng qadimgi davrlardan boshlab, hozirgi adabiyotgacha ko‘rish mumkin bo‘ladi. Arxetip konstruksiya va sxemalardan o‘ziga xos “syujet va syujet holatlari” umumlashmasi hosil bo‘ladiki, ular asardan asarga, davrdan davrga ko‘chib yuradi. Masalan, “bulbul — gul — chaqirtikanak”. Bunday sodda izoh bilan birga, J. Joys, T. Mann, F. Kafka asarlari tahliliga arxetipik nuqtayi nazardan yondashganda, J. Joysning “Uliss” romanidagi Blum, Tomas Manning “Sehri tog‘” romanidagi Gans Kastorp kabi qahramonlar talqini ancha murakkab jarayon sifatida tahlil etilishining guvohi bo‘lamiz. Yu. Lotman arxetiplarning turli shakllari transformatsiyasini A. S. Pushkin, N. V. Gogol ijodidan topib keltiradi. Zamonaviy asarlardagi arxaik va mifologik motivlar tahlilida G. Markesning “Tanholikning yuz yili”, “Buzrukning kuzi”, Ch. Aytmatovning “Asrni qaritgan kun”, “Qiyomat”, “Kassandra tamg‘asi”, “Tog‘lar qulayotgan zamon” (“Abadiy qalliq”) romanlarida arxetipdan foydalanilgan.

Demak, ramzning mazmun-mohiyatini obraz strukturasidan alohida tahlil qilish mumkin emas: “ramzlar nazarimizda hodisalar va voqealarning emas, balki onga jo‘natilgan xabarlarining tafakkurdagi natijalari reprezentatsiyasi” (8, 216). Aynan shu joyda ramzning o‘ziga xosligini belgiga nisbatan munosabatida topish mumkin bo‘ladi: “Ramz ma‘no qamrovini cheksiz darajada kengaytirish va matn chegaralaridan chiqishga imkon beradi” (13, 28). Badiiy asarda obraz-ramzlar ijodkorga badiiy obraz xarakteridagi asar g‘oyasi bilan bog‘liq inviduallikni chuqurroq ochishga, mohiyat qamrovini kengaytirishga va nihoyat intertekstuallik darajasiga olib chiqishga imkon beradi “Ramz o‘zining “kuchli serqatlam semantik mohiyati” bilan obrazning badiiylikni oshirishga qodir” (6, 461). Buguni kun badiiy adabiyotda muallif o‘rni, uning nuqtayi nazari bahsli bo‘lib turgan sharoitda kitobxonni mustaqil fikrlashga, mazmun-mohiyatni olamni anglash manzarasidan, undagi “men”idan kelib chiqqan holda, hayotda bo‘layotgan jarayonni mustaqil talqin qilish yo‘li bilan tushunishga o‘rgatadi.

Obraz-ramzlar anglatadigan mohiyatning qamrovi resipiyentning “idrok doirasiga” bog‘liq. Qabul qiluvchi tafakkurning “idrok doirasi”, ya‘ni konseptosferasi qanchalik boy bo‘lsa, shunchalik badiiy asardagi obraz-ramzlarni tushunish va ularning semantik doirasini kengroq anglashga imkon beradi. Masalan, U. Hamdamning “Musulmon” asaridagi qushchalar oddiy obraz emas, balki biz yuqorida qayd qilgan obraz-ramz tipiga kiradi. Chunonchi, bu qushchalar obraziga singdirilgan semantik ma‘no doirasi shu darajada keng va chuqurki, uning semantik markazi badiiy asarning ayni bosh g‘oyasiga borib taqaladi. S. Kamilova “Musulmon” asarida bir vaqtning o‘zida bir nechta obraz-ramzlar akkumulyatorga aylanadi: vijdon, vaqt, taqdir va qalb ramzi sifatida qushlar tasvirlari, bog‘ tasvirlari..” (7, 3–4), deb izoh berar ekan, nazarimizda, olima qushchalar qahramonning o‘sha zamon va makon ichra shakllangan ma‘naviy qadriyatlarini, uning boshiga tushayotgan savdolar, imtihon qiluvchi taqdir o‘yinlari va inson tabiatining bir qismi kabi tushunchalarni anglatuvchi ramz deb tushunadi. U. Hamdam asaridagi qushchalar bir tomondan ilohiylik va insoniylik nuqtasining kesishmasida

vujudga keluvchi qadriyatlar, muqaddas dinimizning asl mohiyatini tashuvchi bir belgi, ikkinchi tarafdin, aynan Yaratganning yerdagi vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Hasan insonga yordam qilishdan yuz o‘girib, machit tomonga otilganda, qushchalardan biri machit atrofida aylanib, Husan tomon uchib ketadi, bu yerda qushcha uning iymoni, e‘tiqodi masalalarini aniqlashtiradigan ramziy timsoldir. Zamon va makon ichra yosh qalblar egasi qanday qadriyatlar asosida shakllanishi, ularning psixologiyasida bo‘layotgan jarayonlar aynan mana shu kichik qushchalar harakati orqali tasvirlanadi. Qushchalarning harakatidan biz qaysi biri iymon, qaysi biri imkon tarafdaligini anglaymiz. S. Kamilova “bog‘” haqida fikr yuritar ekan, tabiatni falsafiy obrazlar qatoriga qo‘shadi. O‘ylashimizcha, bog‘ ramziy obrazlar qatoriga kirib, uning tom ma‘nosi tabiat, ya‘ni tasvirlangan elementlaridan biri, peyzaj bo‘lsa, boshqa tarafdin Husanning bog‘da sayr qilish odatlariga ko‘ra, ma‘naviy ozuqa, ruhiy quvvat oladigan yuqoridagi S. Komilova aytgan akkumulyator (*makon*) vazifasini bajaradi. Qushchalar va aka-ukalar obraz-ramz qatoriga kiritilib, L. Yu. Fuksonga ko‘ra, bu obrazlarning ma‘no qamrovi cheksizlikka qarab intiladi. Tabiat esa hikoyaning tasvir dunyosida ramziy ma‘noga ega timsoldir. Alloh tomonidan yaratilgan tabiat poklik ramzi, ruhiy ozuqa beruvchi poklanish *makoni* sifatida gavdalanadi. Demak, bugungi kun adabiy tahlili nuqtayi nazaridan qarar ekanmiz, qushchalar obraz-ramz sifatida keng va ko‘p qatlamli semantik doiradagi ma‘noni o‘z ichiga oladi. Ular qahramonlar tomonidan bosayotgan qadamlarni, har bir ishlarini muqaddas dinimiz va shu asosida shakllangan milliy qadriyatlarga to‘g‘ri kelishining reprezentatsiyasidir. Ya‘ni madaniy kod, milliy an‘ana va diniy tafakkurning birlashuvidagi madaniy marker vazifasini bajaruvchi zamon va makonlar osha parvoz qilishga qodir falsafiy qamrovdagi obraz-ramzdir.

Shu o‘rinda aytish joizki, ramziy obraz va obraz-ramz orasidagi farq ikkinchi terminning ma‘no qamrovi chegaralari ko‘p qatlamli semantik doira emas, balki matrisa shaklidagi o‘zgaruvchanligida va cheksizligidadir. Ramziy obrazlar funksiyasi obraz-ramzlarnikiga qaraganda torroq bo‘lib, ular kitobxonning diqqat-e‘tiborini qahramonning asosiy jihatiga qaratishga xizmat qiladi. U. Hamdam ramz va obraz haqida “umuman, ramzlar va timsollar asosiga qurilgan adabiyot kitobxonni kengroq mushohada qilishga undaydi, yo‘naltiradi, aslo tayyor xulosalar taqdim etmaydi, manzilgacha kuzatib qo‘ymaydi”, (14, 47) deya e‘tirof etadi. Olimning mushohadasi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Obraz-ramzlar haqida fikr yuritilar ekan, S. Komilovanning “Mustaqillik davri o‘zbek hikoyachiligining ba‘zi tendensiyalari” (7, 3–4) maqolasidagi ayni jumla diqqatimizni tortadi: “Zamonaviy yozuvchilarning ayrim asarlaridagi obraz-ramzlar aniqlik, milliy o‘ziga xosliklari bilan o‘zbek xalqining tafakkur va tamaddunini ochib berishga xizmat qiladi” (14, 47). Bundan anglashiladiki, zamonaviy adabiyotimizda yaratilayotgan bu kabi obrazlar madaniyat (madaniy kod, mentallik) → ramz → mif → arxetip → inson tushunchalari zanjiri orqali ifodalanishi kerak. S. Komilovanning mulohazasi fikrimizni asoslab, bugungi kun o‘zbek adabiyoti zamon bilan hamnafas bo‘lish bilan birgalikda hozirgi adabiy jarayonda o‘z munosib o‘rniga egaligini bildiradi. Muammo milliy adabiyotimizni zamonaviy talqinlar, metodologiyalar prinsiplari asosida

tahlil qilishdadir. Muallif dunyoga tanitishga arziydigan asarlar yaratarkan, adabiyotshunoslarning vazifasi mana shu ijod mahsulini munosib ravishda targ'ib qilishdir. Bu yo'lda ikki muammo mavjud: biri — badiiy asarni yangi metodologik usullardan foydalangan holda tahlilga tortish ko'nikmasi yetarlicha shakllanmagani, ikkinchisi — tarjimadir.

O'zbek adabiyotshunosligida yaratilajak terminologik lug'atlarda yoki adabiyotshunoslikka oid ensiklopediya va qo'llanmalarda badiiy obrazning murakkab tabiatiga xos yuqoridagi jihatlar ham aks etishi lozim. Biroq adabiy termin sifatida obraz atamasini milliy nomlar bilan almashtirishga urinishlarni terminologiyadagi identifikatsiya muammolaridan biri sifatida qarash kerak.

Atamani milliyalashtirish o'zbek adabiyotshunoslik ilmiga putur yetkazmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Rus adabiyotshunosligi orqali kirib kelgan xalqaro terminlarni keng ko'lamda qo'llashga qarshiliklar kuchaydi. Ularning asosiy talabi iste'moldagi har bir terminni milliyalashtirishdan iborat edi. Birgina obraz terminining *qiyofa*, *siymo*, *timsol*, *ko'rinish*, *surat* kabi muqobil variantlari paydo bo'ldi. Termining adabiy hodisa sifatidagi ma'no qamrovini hisobga olmagan holda, *obraz* mohiyatini o'zida to'la mujassamlashtirmagan qator tushunchalarni termin sifatida tavsiya etish kuchaydi. Mohiyat e'tibori bilan bu tamoyil o'ta xavfli bo'lib, u fan taraqqiyotiga jiddiy ziyon yetkazadi. Ilmiy tilni milliyalashtirish adabiyotshunosligimizni jahon adabiyot ilmi darajasiga ko'tarishdan, o'zga xalqlar adabiyotshunosligi erishgan yutuqlardan mahrum etishga, keng ma'noda, mazkur soha xodimlari o'rtasida axborotni ommalashtirishga imkon bermaslikka, bu jarayonni qiyinlashtirishga olib keladi. Shuning uchun haqiqiy adabiyotshunos o'z tilida ifodalab bo'lmaydigan ilmiy tushunchalarni xalqaro terminlar vositasida anglatgani ma'qul. Ana shunda milliy terminlar xazinasini boyiydi, tushunchalar miqyosi kengayadi. Bu hodisa soha taraqqiyotiga keng yo'l ochishi muqarrar.

Ayni holat *obraz* terminini sharhlashda, u ifoda etgan tushunchalarni berish uchun qo'llanilgan milliy atamalarni masalaning mohiyatini anglatishi yoki anglata olmasligida ko'rinadi. Agar bu termin genezisiga e'tibor qaratilsa, u bilan bog'liq tushunchalarning ma'no qamrovlari aniqlanishi mumkin. *Obraz* terminining *siymo*, *qiyofa*, *ko'rinish*, *surat*, *tasvir*, *timsol* kabi o'zbek tilida qo'llanilayotgan muqobil variantlarini sharhlashda, ushbu terminning barcha ma'nolar qamrovini hisobga olgan holda, uning har bir muqobili xususida to'xtalib o'tish joiz.

Dastlab, o'zining hamma ma'no ottenkalari bilan ijobiy tasavvur uyg'otadigan *siymo* so'zi xususida. Garchi bu so'z bir-ikki maqolalarda *obraz* terminining muqobili sifatida tilga olingani bilan unga berilgan izohni kuzataylik: “*Siymo* — (arabcha so'z bo'lib) yuz, chehra; belgi, alomat, qiyofa” (ma'nolarini anglatadi). Shuningdek, u quyidagi hollarda qo'llaniladi: “*Shaxs*, zot (1); *Qiyofa*, ko'rinish (2): ulug'vor *siymo*; go'zal *siy mosi*” (17, 498) . “O'zbek tilining izohli lug'atida” berilgan bu sifatlashlar *siymo* so'zini *obraz* bilan tenglashtirishga, ya'ni identifikatsiya qilishga imkon bermaydi. Chunki u “*shaxs*”, “*zot*” mazmunini anglatganda ham, “*qiyofa*”, “*ko'rinish*” ma'nosida ham insonning tashqi jihati bilan bog'liq ma'no tashiydi. “*Ulug'vor*”, “*go'zal*” kabi epitetlar ham inson shaxsiga nisbatan aytilsa-da, uning badiiy obraz sifatida keng ko'lamda

qo'llanilishi uchun yetarli emas. Nihoyat, izohli lug'atda bu so'zning "biror shaxs obrazi: ulug' zotning yorqin siymosi" ma'nosi ham keltirilgan. Biroq bu o'rindagi obraz "ulug' zotning yorqin siymosi" birikmasida ishlatilishi mumkin. Lekin u tom ma'noda badiiy obraz tushunchasining muqobili bo'la olmaydi. Masalan, siymo so'zini ijobiy ma'noda qo'llash mumkindir, biroq Gyotening "Faust" asaridagi Mefistofel yoki Fitratning "Shaytonning Tangriga isyoni" she'riy dramasiidagi Shaytonga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Shuningdek, Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari tarkibidagi alohida masallarni yoki obrazlarni kuzatganda, "Toshbaqa bilan Chayon" masalidagi "Toshbaqa yoki Chayon siymosiga tavsif bering" shaklida qo'llash naqadar noo'rin. Shuning uchun ham kelib chiqishi arabcha bo'lgan siymo so'zi o'zbek tilining faol leksik qatlamidan o'rin olgani bilan uni poetik obrazning muqobiliga tenglashtirib bo'lmaydi.

Qiyofa so'zi, asosan, tashqi ko'rinish ma'nosida keladi. Ushbu so'zning ma'nolari hammaga tanish bo'lgani uchun uni izohlab o'tirmay, *obraz* o'rnida qo'llab ko'raylik: Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojiasidagi Ulug'bek qiyofasi. Bu o'rinda hech bir kitobxon ushbu so'zdan Mirzo Ulug'bekning badiiy asardagi obraz ekani, uning betakror xarakteri, ilmiy salohiyati, tojidorlik uquvi va hokazolar to'g'risida ma'lumot ololmaydi. Ma'lumki, ayni asarda bosh qahramon Amir Temur ruhi (arvohi) bilan uchrashadi. Shu holatda Amir Temur qiyofasi ifodasini qo'llash mantiqqa mutlaqo zid. Shuning singari Shekspirning "Hamlet" asaridagi qahramon otasining ruhiga yoki Fitratning "Abulfayzxon" asaridagi Xayol (Siyovush) obraziga nisbatan qiyofa so'zi ham mos kelmaydi.

Ko'rinish so'zi esa adabiy termin sifatida qo'llanilishi mumkin emas, chunki uning ma'nosi obraz termini zamiridagi ma'nolarning yarmini ham bera olmaydi. Shuning kabi surat so'ziga murojaat etadigan bo'lsak, unda shaxs xarakteri emas, balki uning zohiriy ko'rinishi aks etayotgani hammaga ayon. Qolaversa, surat adabiy istiloh sifatida mumtoz adabiyotshunoslikda "shakl" (shakl va mazmun tushunchasiga ko'ra)ning arxaik ifodasi sifatida ko'p qo'llanilgan. Endi uni boshqa mazmunga burish, *obrazni shaklga* tenglashtirishga olib keladi. Bu holat esa chalkash jarayon hisoblangan adabiyotshunoslik terminologiyasini yanada murakkablashtirishga olib keladi.

O'zbek adabiyotshunosligida obraz terminining muqobili sifatida timsol ifodasi adabiy istiloh tarzida istifoda etilmoqda. Albatta, yuqoridagi so'zlarga nisbatan timsol *obrazga* yaqin kelishi mumkin. Timsol so'zi anglatgan mazmunni to'la tasavvur etish uchun lug'atga murojaat etaylik: "Timsol — (arabcha so'z bo'lib) "haykal, tasvir" ma'nolarini bildiradi:

1. Tushuntirish uchun asos, dalil, isbot sifatida bir turli narsa, voqea, hodisa va shu kabilardan keltirilgan ayrim namuna.
2. Ibrat bo'la oladigan kimsa, narsa.
3. Belgi ramz.
4. Ko'z o'ngida, xayolda, tasavvurida gavdalangan obraz, siymo, ko'rinish, surat" (18, 996) .

Shuning bilan birga, bu tushuncha mumtoz adabiyotshunoslikda "misol keltirish", "ramziy ifoda berish" mazmunida ham ishlatilganligini yodga olish mumkin. Shunga qaramay, uning ma'no xususiyatlari

mustaqillik davriga kelib kengaydi. Timsol *ramz* (simvol), *belgi* (znak) ma'nolarini ham o'zida birlashtirmoqda. Lekin hali bu qo'llanilishlar doirasi ushbu istilohni adabiy termin sifatida to'la shakllanganini ko'rsatmaydi.

Dastlab, obraz turlarini aniqlashda, ko'proq terminning tashqi jihatiga yondashishdi. Sho'ro adabiyotshunosligida L. Timofeyevning ushbu tasnifi uzoq muddatga qadar davom etdi: *personaj*, qatnashuvchi shaxs (deystvuyushyeye liso), qahramon (geroy), tip. Agar kishilar obrazining mohiyati xarakter termini orqali ifodalanadigan bo'lsa, unga nisbatan yuqoridagi atamalar sifatlash ma'nosini o'tashi mumkin. *Personaj* borasida ikkinchi bobning ikkinchi faslida atroflicha mulohaza yuritilgani uchun bu borada yana to'xtalishga ehtiyoj sezilmaydi.

Adabiy qahramon *obrazning* bir turi sifatida badiiy adabiyot vujudga kelgan davrdan beri mavjud. Bu termin lug'atlarda shunday tavsiflanadi: "Qahramon (yunon, lotin. heros) — adabiy asarlarda inson mavjudligining bir shakli (yoki uning inson qiyofasidagi hayvonlar, o'simliklar, narsalar ko'rinishidagi o'xshashligi). "Qahramon termini dastlab tasvirlangan shaxsning ijobiy rolini, o'ziga xosligini, eksklyuzivligini ta'kidlaydi. Hozirgi kunda adabiy qahramon tushunchasi asta-sekin har qanday amalga oshirayotgan funksiyalaridan qat'i nazar ishtirok etuvchi shaxsga nisbatan qo'llanila boshlandi" (3, 22). Haqiqatan ham *qahramon* va *qatnashuvchi shaxs* tushunchalari *zamonaviy* adabiyotshunoslikda bir ma'noda qo'llanilayotgani sir emas. Shuning uchun ham *adabiy qahramon* tushunchasining *personaj* va *qatnashuvchi shaxsga* o'tishi hozirgi adabiy jarayonning jonli tamoyillaridan biri sanaladi. Qahramon betakrorlik, o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turishligi nuqtayi nazaridan *xarakter* terminiga ehtiyoj bor. Ayni mana shu termin badiiy adabiyotning tirik, harakatchan qahramonlariga nisbatan qo'llanilishi bilan kishilar obrazlarining boshqa turlaridan farqlanadi. Adabiyotshunos S. G. Bocharov: "Hayotdagi xarakter adabiyotdagi xarakter bilan bir xil emas: haqiqiy inson tipini aks ettiruvchi badiiy xarakter uni rivojlantiradi va shu bilan voqelik yukini o'z zimmasiga oladi" (4, 317), deb yozadi. Demak, xarakter termini real hayotda qo'llanilayotgan fe'l-atvor tushunchasiga ega bo'lgan xarakter so'zidan jiddiy farq qilib, badiiy asarda ishtirok etuvchi va faol harakatdagi shaxsga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Adabiy asarda qatnashish xususiyatiga va asar davomidagi taraqqiyotiga ko'ra obrazni ifoda etuvchi terminlar shunday tartibda kelishi mumkin: *personaj* → *qahramon* (qatnashuvchi shaxs) → *xarakter* → *tip*.

Ko'pgina hollarda zamonaviy adabiyotshunoslikda xarakter va tip terminlari sinonim sifatida ishlatilishi kuzatiladi. Vaholanki, ular ma'nosi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lishiga qaramay, har xil mohiyatga ega.

Adabiy tip xarakterdan o'zining yuqori darajadagi umumlashma ma'nosi bilan ajralib turadi. U o'z xarakteriga ega qahramon orqali ifodalanishi mumkin. Masalan, I. Abuzyarovning "Mavr" asaridagi bosh qahramoni azart o'yinlar orqali tez va oson boyib ketish yo'lini tanlab, faqatgina ustoz Mavr tufayli to'g'ri yo'lni tanlashga musharraf bo'lgan yosh, o'z xarakteriga ega qahramon, talaba obrazi misolida ushbu makon va zamon ichra umumlashma protipini ko'rish mumkin. U orqali inson ruhiyatidagi jarayon, yoshlar orasida yangi tafakkurning shakllanishi, qadriyatlarining tanazzuli tasvirlanadi.

Obraz termini tashigan yuqoridagi ma'no xususiyatlarining hammasi birgina so'zda jam bo'lishi kerak. Agar uning muqobili sifatida tavsiya etilayotgan *qiyofa, ko'rinish, siymo, surat* so'zlariga e'tibor qaratsak, ularning hech biri obraz terminiday ko'p ma'noli bo'lolmasligini, qolaversa, boshqa millat vakillari tomonidan tushunarli bo'lavermasligini ham kuzatamiz. Shuni ham inobatga olish kerakki, adabiyotshunoslik yo'nalishlari kengayar ekan, ularning tushunchalari ham o'z ma'no qamrovi chegaralarini kengaytiraveradi. Mazkur xulosa obraz terminiga ham tegishli bo'lib, bugungi kunda *obraz-ramz yoki obraz-tasavvur* kabi turlari adabiy ilmda mavjud.

Yuqorida qayd qilingan har bir termin *zamonaviy* asar qahramonining "o'tish tafakkuri"ni (porogovoye soznaniye) ifodalab, uni universal timsollar orqali amalga oshirishi oxir-oqibat o'sha ko'p qatlamli semantik ma'no va madaniy kod ko'lamiga olib chiqadi va tahlil jarayonini intertekstuallik darajasiga yetkazadi.

Xulosa

Bugungi kun dunyo adabiyotshunosligi maktablar konsepsiyalar qamrovida rivojlanayotgan terminlar tizimini o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik: Zamonaviy adabiyotshunoslikning obyekti kengayishi bilan badiiy obraz kategoriyasi ham borliqni ramzlar, belgilar va tafakkur orqali anglash modeli sifatida ma'no qamrovini kengaytirib, o'z ichiga madaniy marker kabi tushunchalarni qamrab oldi. *Obraz-ramz* ontologik va konseptual jihatdan olam manzarasini anglashni nazarda tutib, keng qamrovli va ko'p qatlamli semantik maydonni hosil qiladi. Bir tarafdin, yuqorida ko'rsatib o'tilgan jihatlar *zamonaviy* adabiyotda *obraz-ramz* mavjud bo'lgan badiiy obrazning turlaridan biri emas, balki mustaqil kategoriya deyishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, ilmda kategoriya fundamental tushunchalardan biri bo'lib, Arastuga ko'ra, borliqni keng qamrovda anglash va umumlashtirishni nazarda tutadi. Arastu kategoriyaning asosiy funksiyasi borliqni tasvirlashda emas, balki asarning asl mohiyatini ma'nolar ichra eng to'g'ri talqinini tanlashni kafolatlovchi instansiya deb tushunadi. I. Kant kategoriya tushunchasini idrok bilan bog'lab, uni psixologik jarayonga qo'shadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda kategoriya muayyan obyektiv reallik doirasidagi ijodiy tafakkur mahsuli sifatida qabul qilinadi, uning ontologik, gnoselogik va konseptual tomonlari tilga olinadi. Shunday ekan, zamonaviy badiiy asarlarda obraz-ramz kategoriya darajasiga ko'tarilgan bir instansiyadir. Binobarin obraz-ramzning termin sifatida ma'no qamrovi chegaralari ham juda keng, ko'p qatlamli semantik maydonga ega bo'lib, ijodkorga badiiy asardagi voqelikni mazmun jihatidan betakror yaratish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi.

Badiiy adabiyotda "obraz" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u asarda ishtirok etuvchi kishilar, hayvonlar, o'simliklar, narsa-predmetlar va mavhum tushunchalarni jamlovchi termin sifatida ishtirok etadi. *Obraz* termini mana shu ma'nolarni o'zida jamlay olgani bilan o'zbek tilidagi *siymo, timsol, ko'rinish* kabi muqobillaridan ustun turadi. Bu tushunchaning terminologik variantlarini izlashdan ko'ra uning o'zini qabul etish ma'qul.

Kishilar obrazi badiiy asarda qatnashish xususiyatiga ko'ra *personaj* → *qahramon* (*qatnashuvchi shaxs*) → *xarakter* → *tip* tarzida ishtirok etishi mumkin. Bu jarayonda *xarakter* adabiy qahramon mohiyatini aks ettiruvchi termin bo'lib, u badiiy asar o'ziga xosligini ta'minlashda, muallif idealidagi qahramonning xatti-harakati, orzu-niyatlari, o'y-xayollarini berishda belgilovchi mohiyat kasb etadi.

Adabiyotshunoslik terminlarini identifikatsiya qilish muammosi rus adabiyotshunosligi orqali kirib kelayotgan ko'pgina murakkab tarkibli terminlarning sifatlovchi qismlarini o'zbek tiliga tarjima qilib bo'lmasligi sababli ularni o'zbek tiliga moslagan holda ifodalash muhimligini ta'kidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аверинцев С.С. Символ в искусстве: литературно-энциклопедический словарь. — М.: Наука, 1987. — С. 378–379.
2. Болтабоев Х. Адабиёт энциклопедияси. — Т.: Мумтоз сўз, 2015. — 522 с.
3. Борисова И.Ф., Низамова М.Н., Эрматов Б.С. Словарь литературоведческих терминов. — Т., 2004. — 22 с.
4. Бочаров С.Г. Характеры и обстоятельства //Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении. — М., 1962. Кн.1. — 317 с.
5. Гуревич П.С. Философия культуры: учебник для высшей школы. — М.: Издательский дом NOTA BENE, 2001. — 161 с.
6. Зельцер Л.З. Выразительный мир художественного произведения. — М.: Некоммерческая издательская группа Э. Ракитской (Эра), 2001. — 467 с.
7. Камилова С.Э. Некоторые тенденции развития узбекских рассказов в период Независимости//Звезда Востока. — 2011. — № 3–4. — URL: <https://ziyouz.uz/ru/2012-09-02-11-30-49/49-2012-09-02-10-46-12/659-2012-09-07-07-01-58>
8. Колодина Н.И. Символ в художественных произведениях // Понимание как усмотрение и построение смыслов. — Тверь: ТГУ, 1996. — С. 40-45.
9. Литературный энциклопедический словарь / под общ. ред. В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. — М.: Советская энциклопедия, 1987. — 378 с.
10. Лотман Ю.М. Избранные статьи в трех томах. Т.I Статьи по семиотике и топологии культуры — Таллин: Александра, 1992. — С. 191–199.
11. Лотман Ю.М. Семиосфера. — СПб.: Искусство-СПб, 2000. — 545 с.
12. Мамардашвили М.К., Пятигорский А.М. Символ и сознание: Метафизические рассуждения о сознании, символическом и языке. — М.: Языки русской культуры, 1999. — 216 с.
13. Фуксон Л.Ю. Проблема интерпретации и ценностная природа литературного произведения: монография. — Кемерово, 1999. — 28 с.

14. Ҳамдамов У. Жаҳон адабиёти: модернизм ва постмодернизм. — Т.: Академнашр. 2020. — 47 б.
15. Эсалнек А.Я. Архетип// Введение в литературоведение/Под ред. Л.В. Чернец. — М.: Издательский центр “Академия”, 2010. — 567 с.
16. Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. — Т.: Академнашр, 2010. — 162 б.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т. 4. — Toshkent, 2006. — 996 б.

References

1. Averinsev S.S., *Simvol v iskusstve: literaturno-ensiklopedicheskiy slovar* (Symbol in Art: Literary-Encyclopedic Dictionary), Moscow: Nauka, 1987, pp. 378–379.
2. Boltaboyev H., *Adabiyot ensiklopediyasi* (Encyclopedia of Literature), Tashkent: Mumtoz suz, 2015, 522 p.
3. Borisova I.F., Nizamova M.N., Ermatov B.S., *Slovar literaturovedcheskix terminov* (Dictionary of Literary Terms), Tashkent, 2004, 22 p.
4. Bocharov S.G., *Xarakter i obstoyatelstva* (Characters and Circumstances), Moscow, 1962, 317 p.
5. Gurevich P.S., *Filosofiya kulturi: uchebnik dlya visshey shkoli* (Philosophy of Culture: Textbook for Higher Education), Moscow: Izdatelskiy dom NOTA BENE, 2001, 161 p.
6. Zelser L.Z., *Virazitelniy mir xudojestvennogo proizvedeniya* (The expressive world of fiction), Moscow: 2001, 467 c.
7. Kamilova S.E., *Zvezda Vostoka*, 2011, No. 3–4, available at: <https://ziyouz.uz/ru/2012-09-02-11-30-49/49-2012-09-02-10-46-12/659-2012-09-07-07-01-58>
8. Kolodina N.I., *Simvol v xudojestvennix proizvedeniyax* (Symbol in Fiction), Tver: TGU, 1996, pp. 40–45.
9. Literaturniy ensiklopedicheskiy slovar (Literary Encyclopedic Dictionary), Moscow: Sovetskaya ensiklopediya, 1987, 378 p.
10. Lotman Yu.M., *Izbranniye stati v trex tomax* (Selected Articles in three Volumes), Tallin: Aleksandra, 1992, pp.191–199.
11. Lotman Yu.M. *Semiosfera* (Semiosphere), Saint Petersburg: Iskustvo-SPb, 2000, 545 p.
12. Mamardashvili M.K., Pyatigorskiy A.M., *Simvol i soznaniye: Metafizicheskiye rassujdeniya o soznanii, simvolike i yazike* (Symbol and Consciousness: Metaphysical Reasoning about Consciousness, Symbolism, and Language), Moscow: Yaziki russkoy kulturi, 1999, 216 p.
13. Fukson L.Yu., *Problema interpretatsii i syennostnaya priroda literaturnogo proizvedeniya: monografiya* (The Problem of Interpretation and the Value Nature of a Literary Work: Monograph), Kemerovo, 1999, 28 p.
14. Hamdamov U., *Jahon adabiyoti: moderizm va postmodernizm* (World Literature: Modernism and Postmodernism), Tashkent: Akademnashr. 2020, 47 p.
15. Esalnek A.Ya., *Arxetip* (Archetype), Moscow: Izdatelskiy syentr Akademiya, 2010, 567 p.

16. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M., *Adabiyotshunoslik lugati* (Dictionary of Literary Studies), Tashkent: Akademnashr, 2010, 162 p.
17. Uzbek tilining izohli lugati (An Explanatory Dictionary of the Uzbek Language), vol. 4, Tashkent, 2006, 996 p.